



## QUROLLI KUCHLAR YARATILISHINING QONUNIY NEGIZLARI

Uzaqov Abduvali Ortiqovich

Pulatov Bahodir Abduraupovich

*Farg'onan Davlat Universiteti*

*harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qurolli kuchlar yaratilishining qonuniy negizlari xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga Qurolli kuchlarimiz yaratilishi bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *Qurolli Kuchlar, Konstitutsiya, Vatan ximoyasi, qonuniy negizlar, O'zbekiston Respublikasi Qonuni, harbiy xizmat.*

Davlatimiz mamlakat Mudofaa qobiliyatini kelgusida mustaxkamlash xaqida doimiy g'amxo'rlik ko'rsatib, Qurolli Kuchlar qudratini oshirish va xalq va avvalom bor butun yoshni o'z Vatanini ximoya qilishga tayyorlash uchun barcha kerakli choralarni ko'rshiga o'qituvchi eotiborini qaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Konstitutsiyada yozilganki, Vatan ximoyasi davlat eng muxim vazifalariga kiradi, butun xalq ishi xisoblanadi, va bu maqsadda qurolli kuchlar yaratilgan va umumiy xarbiy majburiyat o'rgatilgan. Shuningdek unda Vatan ximoyasi — xar bir fuqaro burchi va Qurolli Kuchlar safida xarbiy xizmat uning faxriy majburiyati ekanligi xaqida gapirilgan.

Mustaqillik tufayli Vatanimiz o'zining Qurolli Kuchlariga ega bo'ldi va uni yaratilishi o'z qonuniy negizlariga egadur.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari yaratilishini qonuniy negizlaridan Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat masalalarini aniqlab beruvchi asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (st. 52, 93, 126, 153), «Umumhary

majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, «Muqobil xizmat to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston respublikasining Mudofaa doktrinasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning negizida chiqarilgan qonuniy aktlar davlatni himoya etish va Qurolli Kuchlarni boshqarishning asosini aniqlab beradi.

Konstitutsianing 126- bandida, O'zbekiston Respublikasi o'zining xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajadagi Qurolli Kuchlarini yaratadi, 3- bandida esa O'zbekiston Respublikasi chegaralari va hududi daxlsiz va bo'linmasdir deb ko'rsatilgan. Uning 125- bandida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat mustaqilligi va uning hududiy butligini, xalqning tinch hayotini va uning xavfsizligini ta'minlash uchun yaratiladi deb ta'kidlangan. Bundan tashqari Konstitutsiya davlat rahbari va ijroya hokimiyat -O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisning harbiy qurulishga rahbarlik qilish huquqini aniqlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlatning mustaqilligini qo'riqlash va uning hududiy butligini ta'minlash chora tadbirilarini ko'radi. O'zbekiston Respublikasiga hamla qilingan vaqtida urush holatini e'lon qiladi va uch sutka ichida qarorini Oliy Majlisga tasdiqlashga taqdim etadi.

Vazirlar mahkamasi Oliy majlis qonunlarini, Prezidentning buyruq va qarorlarini bajarilishini ta'minlaydi, har yili harbiy xizmatga chaqirish uchun fuqarolar kontingentini aniqlaydi.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari mavjud:

- muddatli harbiy xizmat;
- shartnoma bo'yicha serjant, askar lavozimlaridagi harbiy xizmat;
- ayollarning shartnoma bo'yicha serjant, askar lavozimlaridagi harbiy xizmat;
- harbiy-o'quv yurtlarida kursanlar (tinglovchilar) sifatidagi harbiy xizmat;
- ofitserlik lavozimlaridagi harbiy xizmat.

Tinchlik davrida zahiradagi xizmat, harbiy majburiyatdagilarni harbiy mutaxassisliklari bo'yicha urush davrida kerak bo'ladigan bilimlarini, ko'nikmalarini, takomillashtirish uchun yig'inlar ko'rinishida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq Qurolli kuchlarini yaratishni boshladi, ushbu ma'ruza davomida Qurolli kuchlarning yaratilishi tarixi to'g'risida so'z boradi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan, yurtimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli kuchlarni barpo etish va milliy armiyamizni shakllantirish borasida o'zining mohiyati va ko'lamiga ko'ra tom ma'noda ulkan ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan va kelib chiqayotgan xavf-xatarlarni har tomonlama tahlil etish asosida armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Ushbu dasturga muvofiq, mudofaa vazirligining bo'linma va qismlarini, chegara qo'shinlarini, boshqa vazirlik va idoralarning harbiy tuzilmalarini yagona qudratli tizimga birlashtirgan Qurolli kuchlarimiz qismlarining tarkibi va joylashuvi qayta ko'rib chiqildi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki Qurolli kuchlarimiz va ularning asosiy jangovar bo'linmalarining printsipial jihatdan mutlaqo yangi tashkiliy-tarkibiy tuzilmasi joriy etildi, boshqaruv va tuzilmalarning bir-birini takrorlaydigan, kam samarali bo'g'inlari tugatildi. Bu o'z navbatida mazkur boshqaruv va tuzilmalarning harakatchanligi, tezkorligi va jangovar qobiliyatini oshirish imkonini berdi.



## **ADABIYOTLAR:**

1. Mamajonov.S.H. (2023). Amir Temurning To‘xtamishxonga qarshi yurishlarini sabablari. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary research, 1, 20-23.
2. Hasanboyevich, M. A., Halilovich, M. S., & Ortikovich, U. A. (2022). Amir Temur armiyasining tashkil etilishi va tuzilishi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(12), 1037-1040.
3. Mamajonov.S.H. (2023). Qo‘sinning hordiq uchun to‘xtashi va lagerda joylashishi. Journal of new century innovations, 20, 62-64.
4. Mamajonov.S.H. (2023). Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование, наука и инновационные идеи в мире». Amir Temurning 1391 yilning 18 iyunida kondurcha daryosi bo‘yidagi jangida qo‘sini jangovar tartibi. Journal of new century innovations, 18, 95-98.
5. Mamajonov.S.H. (2023). Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». Amir Temurning 1391 yilda Oltin O‘rdaga harbiy yurishi. 18, 363-366.
6. Mamajonov.S.H. (2023). International Multidisciplinary Journal for research & development. Against Amir Temur's park reasons for walking. 10, 26-28.
7. Xalilovich, M. S. (2022). AT THE SAME TIME, SPITAMEN'S CAVALRY WAS THROWN INTO THE RIVER, AND AN ATTEMPT WAS MADE TO HIDE ON ONE OF THE ISLANDS IN THE MIDDLE OF THE RIVER. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 615-617.